

## **NAVOIY IJODIDA QO‘LLANILGAN BADIY SAN’ATLAR**

**Sultonova Dildora Halim qizi,**  
Uzbekistan State World Languages University,  
Independent research student,  
Tashkent, Republic of Uzbekistan  
E-mail: dildorasultonova196@gmail.com  
Tel:91-986-21-51

**Annotatsiya.** Ushbu maqola Alisher Navoiy ijodida qo‘llanilgan badiiy san’atlar, ularning turlari va qo‘llanilgan o‘rinlari haqida bo‘lib, shoir qaysi badiiy san’atdan qaysi g‘azalida foydalangan va ularning tahlillari qandayligi ko‘rsatib o‘tilgan. Bundan tashqari g‘azallaridan namunalar ham keltirilgan. Navoiy umri davomida yozgan o‘zining barcha g‘azallarining deyarli har bir satrida turli xil she‘riy san’atlarni qo‘llashga harakat qilgan va shu san’atlarni mahorat bilan ocha olgan. Misol uchun, maqolada Navoiy g‘azaliyotida qo‘llanilgan tarsi san’ati va uning tahlili berilgan. Shuningdek, uning ijodida qo‘llanilgan badiiy san’atning usuli, she‘rning mavzui va uslubining qaysi turga mansubligi haqida so‘z yuritilgan. Shu bilan birga, “Xazoyin ul-maoniy”da keltirilgan barcha badiiy san’atlar haqida ma‘lumot berilgan.

**Kalit so‘zlar:** ilmi bade’, lafziy san’atlar, ma‘naviy san’atlar, qorishiqlik san’atlar, aruz, sanoyi, g‘azal.

**Annotation.** This article is devoted specifically to the translation mechanisms of stylistic devices in the ghazals of Alisher Navoi. We have displayed by this article the translation mechanisms of classic literature including artistic art involve the study of the vocabulary of the ghazal, analysis of the ghazal, which a scholar of Alisher Navoi studies and a good knowledge of source and target languages. In addition, the poet must use an appropriate stylistic devices theory and methodology to prove the adequacy of his ghazals to the meaning. So, the article shows how presents the artistic arts used in ghazals and their analysis. Moreover, in which verse, what stylistic devices are used and what meaning they come from is shown.

**Keywords:** ghazal, artistic art, stylistic devices, science of bade, verse, byte, verbal arts, spiritual arts, common arts.

Adabiyotimizning buyuk namoyondasi Mir Alisher Navoiyning adabiy merosi juda ham boy bo‘lib, uning asarlarini lingvistik jihatdan tahlil qilish eng muhim jihat hisoblanadi. Hozirgi kunda navoiyshunoslik juda ham rivojlanyapti. Alisher Navoiy asarlarini matniy, lisoniy, falsafiy va badiiy jihatdan o‘rganish hamda tahlil qilish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilib bormoqda. Ayniqsa, uning asarlarida qo‘llanilgan she‘riy san’atlarni teran anglash va tahlil qilish adabiyot sohasida ulkan imkoniyatlarni olib keldi. Alisher Navoiy ilmi bade’ga oid biror bir maxsus asar yozmagan bo‘lsada, u o‘zining “Majolis un-nafois”, “Xamsa”, “Mahbub ul-qulub”, “Muhokamat ul lug‘atayn” va boshqa asarlarida bu san’at haqida qisman eslab o‘tadi. Ushbu asarlardagi she‘riy san’atlar haqidagi qaydlarda Navoiyning Sharq mumtoz poetikasi, ayniqsa ilmi bade’ni

mukammal bilganligini hamda bu yo‘nalishni chuqur anglaganligini yaqqol sezish mumkin.

Navoiy o‘zining filologiya sohasiga doir asarlarida ilmi bade‘ga doir ba‘zi istiloh va atamalar sharhiga to‘xtalib, o‘z qarashlarini bayon etadi. Xususan, **tarsi** san‘atiga to‘xtalar ekan, “Muhokamat ul-lug‘atayn”da shunday yozadi: “Tarsi san‘atikim, matla’dan o‘zga baytda bo‘la olmas, ul qasidaning agarchi mustaxraj matla’i rostdur, ammo asli matla’da avvalgi misraning bir lafzida takalluf qilibdur va matla’i budurkim, bayt:

**Safai safvati ro‘yat birext obi bahor,**

**Havoi jannati ko‘yat bibext mushki tator.**

(Mazmuni: Pokiza yuzingning sofligi bahor suvini to‘kdi. Jannatdek manzilingning havosi xushbo‘y hid taratdi). [Internet sahifasi: <https://fayllar.org/5-mavzu-navoiy-ijodida-badiiy-sanatlar.html>]

Alisher Navoiy g‘azallarining badiiy qimmatligi shundaki, u tasvir vositalari va san‘atlardan amaliyotda aniqroq hamda samaraliroq foydalangan. Uning lirikasida yuzdan ortiq badiiy san‘atlar qo‘llanilgan bo‘lib, bu shoirning naqadar yuksak tafakkur egasi ekanligidan dalolatdir. Shoirning bu tamoyilini quyidagi holatlarda ko‘rishimiz mumkin:

Birinchidan, Navoiy ijodida qo‘llanilgan badiiy san‘atning usuli, she‘rning mavzui va uslubining qaysi turga mansubligi (tavsifiy, tasviriy, izhor, aralash) bilan aloqadorligi. Misol uchun, biror bir san‘at g‘azalning boshidan oxirigacha yetakchilik qilishi mumkin. Ikkinchidan, aksincha bo‘lib, bitta she‘rda o‘nlab san‘atlarni uchratish mumkin va ular misralarda navbati bilan o‘zgarib boradi. Uchinchidan, ba‘zi g‘azallarda bir nechta badiiy san‘atlar qo‘shilib, murakkab shaklda ishlatilishi mumkin (ba‘zan bir bayt doirasida). To‘rtinchidan, ba‘zi hollarda shoir muayyan baytda bir san‘atni yetakchidek ko‘rsatsada, uning asl mohiyatini boshqa san‘atlar yordamida aniqroq ifodalagan. Beshinchidan, shoir qaysi bir san‘atni qanday janr yoki maqsadda qo‘llamasin, har doim qat‘iy tanosib talablari asosida ish ko‘radi. Ma‘no, tasvir va tasvir unsurlarining o‘zaro mantiqiy mutanosibligi uning poetik tizimi uchun temir qonundir. Yuqorida ta‘kidlanganidek, mumtoz she‘riyatga xos badiiy san‘atlar mohiyat e‘tibori bilan uch guruhga ajratiladi: 1. Lafziy san‘atlar. 2. Ma‘naviy san‘atlar. 3. Mushtarak san‘atlar. Lafziy san‘atlar nutqning ifoda usuli, xususan so‘z shakli bilan aloqador san‘atlar bo‘lib, Atoulloh Husayniy ular sirasiga *tarsi*, *tajnisli tarsi*, *tajnis*, *radd (qaytarish) san‘ati* va *uning turlari*, *qalb* va *uning turlari*, *saj*, *tashtir*, *tajziya*, *tasri*, *tasmit*, *aks*, *tardid*, *tashri*, *zulqofiyatayn*, *tavshih*, *talavvun*, *mulamma*, *muqatta*, *muvassal*, *jam’ ul-huruf*, *mudavvar*, *mushokala* va

boshqa san’atlarni kiritadi. Lavziy san’atlar shoir fikrini yuksak badiiy shaklda ifodalaydi. [Hojiahmedov A. She’riy san’atlar va mumtoz qofiya, Sharq, -T., 1998. 4-bet.]

“Xazoyin ul-maoniy”da radd ul-matla’ san’ati asosida yozilgan 35 ga yaqin g’azal mavjud bo‘lib, shulardan 31 tasida radd ul-matla’ning birinchi ko‘rinishi, qolganlarida esa matla’dagi birinchi misraning ikkinchi bayt tarkibida takrorlanib kelishiga asoslangan ko‘rinishi qo‘llanilgan. Radd ul-matla’ning birinchi ko‘rinishiga Navoiyning quyidagi matla’li g’azalini misol tariqasida keltirish mumkin:

**Kechti umrum naqdi g’afat birla nodonlig‘da hayf,**

**Qolg‘ani sarf o‘ldi anduh-u pushaymonlig‘da hayf.**

Maqta’:

**Ey Navoiy, voqif erman xalqdin, bori mening**

**Kechti umrum naqdi g’afat birla nodonlig‘da hayf.**

[A. Navoiy “G’aroyib us-sig‘ar”, 303-g’azal]

Radd ul-matla’ning Alisher Navoiy ijodidagi ikkinchi ko‘rinishiga esa misol tariqasida quyidagi g’azalni keltirish mumkin:

**Otashin gul bargidin xil’atki jononimdadur,**

**Xil’at ermas, ul bir o’tdurkim, mening jonimdadur.**

**Otashin la’lidururkim, anda muzmar bo’ldi jon,**

**Otashin gulbargidan xil’atki jononimdadur.**

[A. Navoiy “Badoyi’ ul-vasat”, 194-g’azal]

Ushbu g’azalda Navoiy yorning libosini mubolag’a tarzda “otashin gul bargidin” deb tasvirlaydi va oshiqning ruhiy holatini tasvirlash maqsadida boshqa badiiy san’atlar **tashbih va ruju’dan** ham ustalik bilan foydalanadi. Agar g’azalni tahlil qiladigan bo‘lsak, birinchi misrada yor libosi cho‘g‘dek qizil gul bargiga, ikkinchi misrada ruju’ san’ati qo‘llanilib, ushbu fikrni rad etadi hamda undada kuchliroq va mubolag‘aliroq bo‘lgan tashbih san’atidan foydalanadi: yorning egnidagi xil’at bu libos emas, balki oshiqning joniga tushgan o‘t - alangadir. [cc]. Uchinchi misrada so‘zlar ma’nodorligi yanada ortadi: go‘zalning libosi cho‘g‘dek la’l bo‘lib, uning ichiga oshiqning vujudi, joni yashiringan. Shunga ko‘ra, oxirgi misrada birinchi misra takrorlanib, ushbu fikrni yanada ta’kidlagandek tasavvur hosil qiladi.

Yuqoridagi tahlillardan anglashimiz mumkinki, Alisher Navoiy badiiy san’atning ko‘plab turlaridan ustalik bilan foydalangan hamda o‘z g’azallarining ma’noli, jozibali va mukammal bo‘lishini ta’minlagan. Umuman olganda, Navoiy ijodida qo‘llanilgan badiiy san’atlarni o‘rganish shoir badiiy tafakkurining salohiyati,

ona tilining cheksiz go‘zalliklaridan foydalanish iqtidorini ochib berishda muhim kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Hojiahmedov A. She’riy san’atlar va mumtoz qofiya, Sharq, -T., 1998. 4-bet.
2. Husayniy A. “Badoyi us-sanoyi”. (Forschadan A. Rustamov tarjimasini). - Toshkent.: O‘zbek tili va adabiyoti, 1981
3. Mamurov, Q. “Alisher Navoiy g‘azallarini ingliz tiliga tarjima qilish tajribasiga bir nazar”. “Jaxon adabiyoti” jurnali uchun. Toshkent, 2023-y
4. Y.Is’hoqov “So‘z san’ati so‘zligi” Toshkent “O‘zbekiston” 2014-y
5. <https://fayllar.org/5-mavzu-navoiy-ijodida-badiiy-sanatlar.html>